

QADIMGI DAVR MUSIQA SAN'ATI.

Mirzaolimova Gulshanoy

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola orqali qadimgi davr musiqa san'atining paydo bo'lishi va qadimgi davr musiqa san'ati dunyoning har bir qismida o'zgarmagan, butun jamiyatning ruhini ifodalaydigan ahamiyatli bir asos bo'lib, har bir madaniyatning o'z xususiyatlarini o'z ichiga olgan. Misollar bilan, qadimgi Misr, Yunon, Xitoy, Hindiston va Roma musiqa san'atlari, ushbu davrlarning san'atini o'zgarmasini ko'rsatishda muhim rol o'ynaganligi haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *qadimgi musiqa, antik davr, Pifiya va Kapitoliy o'yinlari, Yunoniston, tragediya, qadimgi afsonalar, Rim musiqa madaniyati, pantomima teatri.*

XVII asrlar musiqiy madaniyati - *Qadimgi dunyo musiqa madaniyati mavzusi keng bo'lsa-da, vaqtni inobatga olib, juda ixcham va asosiy ma'lumotlar beriladi. Musiqaning paydo bo'lishi masalalari ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqaladi. A.Gruberning «Vseobshaya istoriya muziki» (musiqaning umumiy tarixi) kitobida tosh asridayoq musiqa san'atiga xos xususiyatlar (ov jarayoni bilan bog'liq tovushlar birikmalari) paydo bo'lib, ular keyinchalik kengayish va rivojlanish etaplarini bosib o'tib, qo'shiqqa o'xshash tovush va so'z aylanmalarini tashkil etgan. Bu bir necha ovozda kuylanadigan har xil tovushlar ma'lum ma'noni anglatib, ov jarayonida xujumga o'tish yoki undan chekinish signallari vazifasini o'tagan. Keyinchalik odam ovoziga taqlid qiladigan har xil musiqa asboblari paydo bo'lgan. Demak, mehnat jarayoni musiqaning rivojiga ham ijobiy ta'sir kursatgan.*

Shunday qilib ibtidoiy qo'shiq, raqs va cholg'u janrlari paydo bo'lgan. Sharq va o'rta yer dengizi mamlakatlarining qadimiy musiqa madaniyati dunyo tsivilizatsiyasida muhim rol oynagan. Ibtidoiy jamoadan quldorchilik tuzumiga o'tish davri musiqa madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Sharq mamlakatlari qadimgi ijtimoiy-siyosiy tuzumi sharoitida madaniyat va san'at tez sur'atlar bilan rivojlandi.

Qadimgi Misrda musiqa madaniyati yo'qsaldi, xalq musiqiy-poetik ijodi namunalari paydo bo'ldi. Saroy dunyoviy va Cherkov musiqasi asarlari paydo bo'la boshladi, diniy-ibodat gimnlari vujudga keldi. Misrda esa drama-misteriyalari va cholg'u musiqasi paydo bo'la boshladi.

Qadimgi Xitoy hayotida ham musiqaning roli katta edi. Xitoy xalq qo'shiqlari yozilgan «Qushiqlar kitobi» yaratildi. Saroy va Cherkov musiqasi rivojlandi. Soz va ohang nazariyasiga oid fikrlar paydo bo'ldi. Qadimgi Xitoy musiqali teatrining faoliyati katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu mamlakatda xalq cholg'u musiqasi va musiqa asboblari keng rivojlangan edi.

Qadimiy Hindistonda ham musiqa san`ati rivojlangan. Ijtimoiy hayotda musiqaning roli beqiyos bo'lgan. Xususan, qahramonlik-vatanparvarlik dostonlari («Maxobxorata», «Ramayana») katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Hind musiqasida so'z va raqs bog'liqligi asosan (kasbiy) musiqa xususiyatlaridan biri bo'lgan. Soz va ohang tuzilishining o'ziga xosligi ayniqsa, Shruti tizimida va Ragada namoyon bo'lgan. (Raga – murakkab, mumtoz kasbiy janr). Raganing Sharq xalqlaridagi maqom turkumlariga o'xshash xususiyatlari bor.

Qadimgi dunyo antik davri - Antik dunyo musiqa madaniyatida qadimgi Yunon badiiy madaniyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Antik dunyo madaniyati Yevropa tsivilizatsiyasi asosi sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Gomer dostonlari, saqlanib qolgan nota yodgorliklarining ma`rifiy: pand-nasihati, soz-ohang xususiyatlari qadimgi Yunon musiqiy-poetik madaniyatining manbalari hisoblanadi. Qadimgi Yunon badiiy ijodiyotining asosiy shakllari: mifologiya, oyinlar, teatr, (Esxil, evripid tragediyalari) lirik qo'shiqlar, xor, yakka ashulalar edi. Shu davrda Grigorian xorali, psalmodiyalar, gimnlar, messalar kabi cherkov murakkab musiqa janrlari paydo bo'lgan. Shu davrlarda ko'p ovoqli professional (kasbiy) musiqa ham paydo bo'lib, asta-sekin rivojlana boshladi. Musiqa san`atining rivojida O'rta asrlar musiqa nazariyasining (soz-ohang, pand-nasihati) yutuqlari asosiy rol' oynadi. Katta davr (VII-XV asrlar)da Yevropa kasbiy musiqasi O'rta asrlarda yaratilgan cherkov ladlariga asoslangan edi. Lotincha modus – lad nom olgan cherkov musiqasi ladlari major-minor ladlaridan keskin farq qilar edi. Dunyoviy musiqa janrlari asosan so'z va ohang uyg'unligiga asoslangan (madrigallar) edi. Trubadurlar, truverlar, minne-zingerlar ijodi musiqada poeziyaning shaqliga ahamiyat berish bilan harakterlanadi.

O'rta asrlar - O'rta asrlar musiqa nazariyasining (soz-ohang, pand-nasihati) yutuqlari asosiy rol' oynadi. Katta davr (VII-XV asrlar)da Yevropa kasbiy musiqasi O'rta asrlarda yaratilgan cherkov ladlariga asoslangan edi. Lotincha modus – lad nom olgan cherkov musiqasi ladlari major-minor ladlaridan keskin farq qilar edi. Dunyoviy musiqa janrlari asosan so'z va ohang uyg'unligiga asoslangan (madrigallar) edi. Trubadurlar, truverlar, minne-zingerlar ijodi musiqada poeziyaning shaqliga ahamiyat berish bilan harakterlanadi.

Yevropada uyg'onish davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'la boshladi. Falsafa va san'atdagi ilg'or yo'nalishlar cherkovga qarshi kurasha boshladilar.

XV-XVI asrlar Yevropa madaniyatida gumanizm (insonparvarlik) g'oyailari kuchaya boshladi. Dunyoviy san'atning rivojlanishi va uning yuksak yutuqlaridan biri milliy, badiiy maktablarning yo'zaga kelishi bo'ldi.

Uyg'onish davri musiqa san'atining harakterli belgilari – musiqada professionalizm (kasbiylik)ning paydo bo'lishi, milliy musiqa maktablarining shakllanishi, hamda musiqiy-nazariy va musiqiy-estetik qarashlar rivoji edi. Italiyada madaniyat va san'atning gullab-yashnagan bu davrida adabiyotda: Dante, Boqachcho, Petrarka; tasviriy san'atda: Rafael, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi va boshqa mashxur san'atkorlar ijodi shakllandi.

Italiyaning ijtimoiy hayotida musiqa yanada salmoqli o'rin tuta boshladi. Xalq musiqasi janrlari xilma-xil bo'lib, undagi ohanglarning mayinligi, nafisligi va yorqinligi professional ijodning demoqratik janrlarini vujudga kelishida zo'r ta'sir qildi. Cholg'u musiqasi rivojida eski uslub hukmronligi saqlanib kelindi. Polifonik (hamma ovozlari o'z mustaqil yo'nalishiga ega bo'lgan ko'povozli musiqa) uslubning o'ziga xos xususiyatlari Dj. Polestrina (1525-1594 yillar) va Dj.Gabrieli ijodida namoyon bo'ldi. Ko'p asrlar davomida birga rivojlanib kelgan Cherkov va dunyoviy-kasbiy musiqa bir-biridan ajralishi va dunyoviy musiqaning diniy musiqadan ustunlikka intilishi kuzatila boshlandi.

Uyg'onish davri - Yevropada uyg'onish davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'la boshladi. Falsafa va san'atdagi ilg'or yo'nalishlar cherkovga qarshi kurasha boshladilar.

XV-XVI asrlar Yevropa madaniyatida gumanizm (insonparvarlik) g'oyailari kuchaya boshladi. Dunyoviy san'atning rivojlanishi va uning yuksak yutuqlaridan biri milliy, badiiy maktablarning yo'zaga kelishi bo'ldi.

Uyg'onish davri musiqa san'atining harakterli belgilari – musiqada professionalizm (kasbiylik)ning paydo bo'lishi, milliy musiqa maktablarining shakllanishi, hamda musiqiy-nazariy va musiqiy-estetik qarashlar rivoji edi. Italiyada madaniyat va san'atning gullab-yashnagan bu davrida adabiyotda: Dante, Boqachcho, Petrarka; tasviriy san'atda: Rafael, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi va boshqa mashxur san'atkorlar ijodi shakllandi. Italiyaning ijtimoiy hayotida musiqa yanada salmoqli o'rin tuta boshladi.

Xalq musiqasi janrlari xilma-xil bo'lib, undagi ohanglarning mayinligi, nafisligi va yorqinligi professional ijodning demoqratik janrlarini vujudga

kelishida zo'r ta'sir qildi. Cholg'u musiqasi rivojida eski uslub hukmronligi saqlanib kelindi.

Polifonik (hamma ovozlari o'z mustaqil yo'nalishiga ega bo'lgan ko'povozli musiqqa) uslubning o'ziga xos xususiyatlari Dj. Polestrina (1525-1594 yillar) va Dj.Gabrieli ijodida namoyon bo'ldi. Ko'p asrlar davomida birga rivojlanib kelgan Cherkov va dunyoviy-kasbiy musiqqa bir-biridan ajralishi va dunyoviy musiqaning diniy musiqadan ustunlikka intilishi kuzatila boshlandi. Frantsiyada uygonish davri san`ati va musiqasi xalq qo'shiqlarining rivojlanishi va uning asosida kasbiy musiqada Gil'om de Masho (1300-1337 yillar) Frantsuz «Shansonni», Gugenotlar musiqasining vujudga kelishi bilan harakterlanadi.

XIII-XV asrlarda Ispaniya, Niderlandiya, Germaniya, Chexiya va Polshada ham polifonik musiqqa janrlari yetakchiligiligi, xalq qo'shiqlarining kasbiy (kompozitorlik) ijodiga manba vazifasini o'tashi va dunyoviy musiqqa janrlarining rivojlanishi hamda yuksak pog'onaga ko'tarilishi ko'zatildi. Shunday qilib musiqqa san`ati ibtidoiy jamiyatdayoq paydo bo'lib, ko'p asrlar davomida turli ijtimoiy-siyosiy davrlar keskin rivojlanish etaplarini o'tadi. Insoniyat rivoji davomida uning musiqasi ham ma'lum qonuniyatlar asosida shakllanib keldi. XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlariga kelib dunyoviy musiqqa janrlari diniy musiqadan ajralib, katta yuksalish pog'onasiga ko'tarildi. Musiqada yangi professional ilg'or opera janri vujudga keldi.

Qadimgi Yunon musiqasi amaliyotida turli xil cholg'u asboblari keng qo'llab kelinganligi ma'lum: torli guruh - lira, kifara, forminga, kinir, barbiton, lirofeniks, sambika, spadiks, psalteriy, magadis, pektida, epigoniy, nabl; damli guruh - avlos turli xillari (bombiks, borim, kalam, gingr, niglar, elim), siringlar (bir-ikki va ko'p trubali) va truba (salpinga, keras); urma guruh - timpan, sistr, kimval, krotal, psifir, roptr. Aleksandriyalik mexanik Ktesibiy (miloddan avvalgi III asrlar) birinchi suvli organ - gidravlos asbobini kashf etgan.

Yunoniston kabi Rimda ham poetik asariarni (Goratsiy odalari, Vergiliy ekloglari, Ovidiy poemalari) tibiya va kifara asboblari jo'rligida ijro etish san'ati keng targ'ib qilindi. Keng qo'llanilgan cholg'ular orasida arfa va liraning xilma-xil turlari, gidravlos (suvli organ cholg'usi), kimval va boshqalarni e'tirof etish joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: .

1. Karimov I. A. Istiqloq va ma'naviyat. – T.: "O'zbekiston", 1994.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015.
4. A.X.Trigulova Xorijiy musiqaadabiyoti T. Ilimzie 2009
5. A.X.Trigulova CHet el musiqa tarixi. Romantizm davri T.,Nizomiy nomli TDPU 2008
6. «Muzikalnaya entsiklopediya» M. Muzika 1978
7. «Chet el musiqasi tarixi» dasturi. Toshkent, 1966 yil.
8. B.V.Levik. «Chet el musiqasi tarixi». Toshkent «O'qituvchi», 1984 yil.
9. Iz istorii zarubejnoy muziki 4. «Muzika» nashriyoti, M., 1980 yil.
10. V.S.Galatskaya. «Muzikal'naya literatura zarubejnix stran». Izd. «Muzika». M., 1967 yil.

www.tdpu.uz//////www.

ziyonet.uz////////

www.dsmi.uz//////////www.conservatory.uz